

## GIGIYENIK OMILLARNING BOLALAR SALOMATLIGIGA TA'SIRI: EPIDEMIOLOGIK TAHLIL

*Otajonova Muslimaxon Faxriddin qizi*

*Andijon davlat Chet tillari instituti*

*2-bosqich talabasi.*

*Ilmiy rahbar: Ra'no Aliyeva*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalar salomatligiga ta'sir qiluvchi asosiy gigiyenik omillar ko'rib chiqilgan. Epidemiologik tahlillar orqali gigiyena qoidalariga rioya qilinmasligining bolalarda uchraydigan kasalliklar bilan bog'liqligi yoritilgan. Ichimlik suvi sifati, ovqatlanish, shaxsiy va yashash gigiyenasi kabi omillarning bolalar salomatligiga bevosa ta'siri misollar orqali asoslab berilgan. Shuningdek, muammoning oldini olishda gigiyenik madaniyatning o'rni haqida xulosa qilingan.

**Kalit so'zlar:** gigiyena, bolalar salomatligi, epidemiologik tahlil, ichki muhit, infektion kasalliklar, shaxsiy gigiyena, gigiyenik madaniyat.

**Аннотация:** В статье рассматриваются основные гигиенические факторы, влияющие на здоровье детей. Эпидемиологический анализ выявил связь между ненадлежащей гигиеной и детскими заболеваниями. На примерах обосновывается непосредственное влияние таких факторов, как качество питьевой воды, питание, личная и бытовая гигиена на здоровье детей. В докладе также сделан вывод о роли гигиенической культуры в профилактике этой проблемы.

**Ключевые слова:** гигиена, здоровье детей, эпидемиологический анализ, внутренняя среда помещений, инфекционные заболевания, личная гигиена, гигиеническая культура.

**Abstract:** This article examines the main hygienic factors affecting children's health. Epidemiological analyses highlight the connection between non-compliance with hygiene rules and diseases in children. The direct impact of factors such as drinking water quality, nutrition, personal and living hygiene on children's health is substantiated through examples. Also, a conclusion is made about the role of hygienic culture in preventing the problem.

**Keywords:** hygiene, children's health, epidemiological analysis, indoor environment, infectious diseases, personal hygiene, hygienic culture.

### KIRISH

Bolalar salomatligi – jamiyat kelajagining garovidir. Ularning sog'lom o'sishi ko'p jihatdan gigiyenik omillarga bog'liq. Gigiyena talablariga amal qilinmasligi turli kasalliklarning erta yoshda yuzaga kelishiga olib keladi.

**Asosiy gigiyenik omillar:**

1. Ichimlik suvi sifati – iflos suv ichak infeksiyalarini keltirib chiqaradi.
2. Ovqatlanish gigiyenasi – noto‘g‘ri saqlangan va yuvilmagan oziq-ovqat zaharlanishga olib keladi.
3. Shaxsiy gigiyena – qo‘lni yuvmaslik, tish tozalamaslik parazit va virusli kasalliklarni tarqatadi.
4. Yashash muhitining holati – chang, chiriyotgan, shamollatilmagan xonalar nafas yo‘llari kasalliklarini keltirib chiqaradi.
5. Ta‘lim muassasalari gigiyenasi – maktab va bog‘chalarda tozalik yetarli bo‘lmasa, yuqumli kasalliklar tez tarqaladi.

**Epidemiologik ma'lumotlar:**

So‘nggi yillarda olib borilgan tahlillar gigiyenik sharoitlar yomon bo‘lgan hududlarda bolalar orasida ichak infeksiyalari, teri kasalliklari va respirator muammolar ko‘proq uchrayotganini ko‘rsatmoqda.

### **XULOSA**

Gigiyenik omillarni nazorat qilish va ularni yaxshilash orqali bolalar salomatligini mustahkamlash mumkin. Oilada, maktabda va jamiyatda gigiyena madaniyatini oshirish – bu sog‘lom avlod garovi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov I.A. sog‘lom avlod – yurt tayanchi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999.
2. Ismoilova M. va boshqalar. Gigiyena asoslari. – Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2017.
3. Xalq salomatligi va gigiyena. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi nashri, 2022.
4. WHO. Water, Sanitation and Hygiene (WASH) in Health Care Facilities. – World Health Organization, 2020.
5. UNICEF. The State of the World’s Children: A fair chance for every child. – New York, 2021.